

NODIR NORMATOVNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Rushana Zaripova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-8207-2819

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14214450>

Annotatsiya. Badiiy asarda obraz yaratish ijod jarayonining asosiy va eng mas'uliyatli qismidir. Obraz asarning yuragi, uning estetik va ma'naviy mazmunini yetkazuvchi asosiy vositadir. Obrazning ruhiy kechinmalarini chuqur ifodalash asarni chuqur va ta'sirchan qiladi. Obraz faqat voqealarning "guvohi" bo'lib qolmasdan, ularga faol ta'sir ko'rsatishi lozim. Obrazni yaratishda muallifning qarashlari ham muhim. Muallif qahramonga baho berishi, u orqali o'z g'oyalarini ifodalashi mumkin, lekin bu asar drammatizmini buzmasligi kerak. Mazkur maqolada yozuvchining obraz yaratish mahorati Nodir Normatov ijodi misolida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: obraz, portret, muallif pozitsiyasi, detallar va tasvirlar.

NADIR NORMATOV'S IMAGE CREATION SKILLS

Abstract. Creating a character in a literary work is the core and most responsible part of the creative process. The character serves as the heart of the work, delivering its aesthetic and moral essence. Deeply expressing the emotional experiences of the character makes the work profound and impactful. A character should not merely be a "witness" to events but actively influence them. The author's perspective is also crucial in character creation. The author may evaluate the character and express their ideas through them, but this should not disrupt the drama of the work. This article examines the writer's skill in character creation through the works of Nodir Normatov.

Keywords: character, portrait, author's perspective, details, and imagery.

НАВЫКИ СОЗДАНИЯ ИМИДЖА НАДИРА НОРМАТОВА

Аннотация. Создание образа в художественном произведении является основной и самой ответственной частью творческого процесса. Образ — это сердце произведения, основной инструмент, передающий его эстетическое и духовное содержание. Глубокое выражение душевных переживаний образа делает произведение глубоким и выразительным. Образ не должен оставаться лишь «свидетелем» событий, но должен активно на них влиять. При создании образа важна также позиция автора. Автор может оценивать героя и выражать через него свои идеи, но это не должно нарушать драматизм

произведения. В данной статье рассматривается мастерство писателя в создании образов на примере творчества Нодира Норматова.

Ключевые слова: образ, портрет, позиция автора, детали и описания.

Asarlarda, jumladan hikoyada obraz yaratish masalasi haqida gap borar ekan, uning boshqa epik janrlardan, avvalo, hajm nuqtayi nazaridan ham farq qilishi e'tiborga olinishi lozim. Chunki hikoyada, qissa yoki romanlardagidek, qahramon obrazini turli vaziyat, turlicha sharoitlardan kelib chiqib har tomonlama, mukammal ochib berish imkoni yo'q. Hikoyada kichik bir detal, holat, badiiy lavha yoki qahramon nutqi orqali ham obrazning xarakterli jihatlari namoyon bo'lishi mumkin. Demak, obraz yaratishda xarakter, ayniqsa, muhim o'rin tutadi. Shu bois badiiy asarda xarakter masalasiga katta e'tibor beriladi. Qahramonning xatti-harakati, yurish-turishi, biror ishni qay yo'sin amalga oshirishi, gap-so'zi va qiziqishlari asarda tasvirlanayotgan hayotiy manzaraga mos kelishi, ya'ni mantiqiy izchillik muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi qahramon xarakterini oydinlashtirish, uning ichki dunyosini tabiiy tarzda ochishga yordam beradi. Shuningdek, bu borada xarakterni yuzaga chiqaradigan vaziyatning ham ahamiyati katta. Chunki u qahramonning ichki olami, xarakter qirralari ochilishiga ma'lum ma'noda imkon yaratadi.

Adabiyotshunos U.Normatov ta'kidlaganidek, *bir vaqtlar nazardan chetda qolgan, aslida esa asrash, ardoqlashga munosib odat va qadriyatlarimizni ko'z-ko'z qilishga, shu qadriyatlarimizni o'zida mujassam etuvchi kishilar obrazlarini adabiyotga olib kirishga mayl ortdi*. N.Normatov o'z qissa va hikoyalarida bir toifa qahramonlar yaratdiki, ular tabiatida ana shu sifatlarni kuzatish mumkin. Ularning bugungi shiddatli hayotni anglashi, unga ko'nikishi qiyin kechadi. Yozuvchining qissa va hikoyalaridagi qahramonlar o'zlarining turlicha xarakterlari, qiziqarli taqdirleri bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi. Masalan, "Bisot" qissasida Qobil lashkar, "O'q" hioyasidagi Ahmad, "Jarlikdan qushlar uchdi" da Rajab cho'loq, "Ko'cha eshikning naqshin gullari"da Asrorqul obrazlari xarakter xususiyatlari bilan mumtoz shoirimiz Abdulla Oripovning «*Noma'lum odam*» she'ri qahramonini esga soladi. Ma'lumki, rus adabiyotida «kichkina odam» («malenkiy chelovek») degan tushuncha bor. Yuqoridagi obrazlar ham aslida «kichkina odam», jamiyat uchun «ortiqcha»dek. Ularning har biri go'yoki kechagi hayot, kechagi mezonlar bilan bugungi hayot va tarqqiyotga baho bermoqchi bo'ladi.

Asarga bosh qahramon qilib kimni tanlash yozuvchining inon-ixtiyori, qolaversa, uning badiiy g'oyasi, niyatiga ham bog'liq. N.Normatov ba'zan qahramonlariga xayrihohdek tuyulsa-da, me'yorga amal qilishi (yuqorida aytganimiz samimiyat masalasida ham), umuman, qahramonlariga nisbatan munosabatda muvozanatni buzmasligini ta'kidlamoqchimiz.

Shu bois ham uning adabiy qahramonlari, rus yozuvchisi V.Rasputin ta'kidlaganidek, qo'g'irchoq kabi jonsiz qiyofalar emas, balki tirik insonlardir.

Atoqli adabiyotshunos Izzat Sulton uslubning o'ziga xos xususiyatlarini qayd etib, bunday yozgan edi: *«Yozuvchi shaxsiyati o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga (masalan, hayotni boshqalar bilmagan yoki kam bilgan tomondan bilishi, o'quvchini hayajonga soladigan asar yozishning o'ziga xos usullarini ijod etish va mavjud usullarni mukammallashtira borish kabi) ega bo'lsagina, asar muvaffaqiyatli chiqadi. Yozuvchi hatto bir asarida qo'llagan vosita va usullarni boshqa asarlarida ishlatish imkoniyatiga har vaqt ham ega bo'lavermaydi. Yangi hayotiy material ko'pincha yangi vositalar topishni zarur qilib qo'yadi. Shunday sabablarga ko'ra, badiiy ijod xilma-xil izlanishlar maydonidir»*¹.

Shu o'rinda aytish mumkinki, adib ijodiga xos muhim xususiyat tasvir etilayotgan voqea-hodisalardagi sokinlik, qahramonlar xarakteridagi mayinlik zamiriga yashiringan keskir, teran mohiyatdadir. N.Normatovning yuqorida tahlilga tortilgan hikoyalaridagi qahramonlar turli avlod va turli ijtimoiy toifaga mansub. Va, tabiiyki, bu obrazlarni yaratishda yozuvchi shu avlod va shu toifaning o'ziga xos xususiyatlari, jihatlarini diqqat markazida tutgan. Ushbu obrazlar talqinida adib turli vosita va usullardan foydalanganki, ularni navbatdagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

Inson o'zini qachon baxtli his qiladi? Bunga turlicha izoh berish mumkin. Masalan, yaqin insonlari davrasida baxtli onlarni kechirsa... O'zi ekkan daraxt mevasini totib ko'rsa.

Farzandlari ulkan yutuqlarni qo'lga kiritisa... va shu kabilar. Lekin, inson uchun eng asosiysi- bu uni tushunadigan birgina insonni bo'lishi. Uni tushunsa va his qilsa. Ana shunda butun borliq go'zaal ko'rinadi. Adibning "Bisot" qissasidagi Qobil lashkar ham umri davomida o'zini tushina oladigan insonni izlaydi va ma'lum ma'noda uni qizi Barnoda topadi.

U Barnoning kasal bo'lishida unga atalgan Bisotni doktor Lazginga berib yuborgani, faqat o'zini o'ylagani, bu esa o'zining katta xatosi ekanini tushunib lazgindan zebigardonni qaytarib oladi. Ammo, Barnoga atalgan Bisot ham beshafqat o'lim changalidan uni qutqarib qololmaydi. Barnoning o'limidan so'ng Qobil lashkar o'zini juda yolg'iz his qiladi. Uning atrofidagi odamlar: xotini Kumush ham, o'g'li Omon ham qizi Barnoning o'rnini bosolmaydi.

Shuning uchun ham Qobil lashkar ulardan voz kechadi. Qizi Barnoning xayoli, o'y-fikrlari bilan yashaydi. Hatto u Qoratog' kanalidan endigina qishlog'iga qaytganda, birinchi oilasi Oygul yetti yashar qizchasi Barnoni tashlab, Ko'hitangning ortiga –ota yurtiga yashiriqcha ketib qolgan paytda ham ushbu holatga bosiqlik va vazminlik bilan yondashadi, fikr yuritadi.

¹ I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2005. -254-b.

Shuningdek bu jarayonni adib quyidagicha tasvirlaydi. "... Qobil bevafo ni izlab u yerga borolmasdi. Borsa Oygulning turkman qarindoshlari uni omon qo'yishmasligini yaxshi bilardi. ... Qobil lashkar bu noxush xabardan gangib qolmadi. Ayollar unga so'z bilan emas, boshni aylantiruvchi qarashlari bilan ham tasalli berishdi, uning yuragiga yangi bir hislar to'ldirini oqib kirgandek bo'ldi."²

Albatta, Nodir Normatov asarlaridagi obrazlarning barchasi yurish-turishi, qolaversa, butun xatti-harakati bilan Surxon odamlarining ma'naviy qiyofasini, faqatgina surxondaryoliklarga xos sodda va samimiyligni ochib beradilar. Shuningdek, adib ularni so'z bilan chizib beradi.

Adib hikoyalarini tahlil qilar ekanmiz, "O'q" hikoyasida Ahmadjon, "Ayol ovozi"da Malika, "Hushtaklar"da Suyunjon, "Umrning ikki kuni" hikoyasida esa Bo'riqul kabi o'ziga xos obrazlar gavdalandirilgan. "Ayol" hikoyasidagi bosh qahramon Malika ismli hamshira ayol.

Hikoyada Malika obrazi orqali o'z kasbining fidokori, samimiy va sofdil inson qiyofasi gavdalandirilgan. U san'at oliygohining talabasi bo'lgan bemor yigitni tezroq tuzalishini, hayotga qaytishini juda ham xohlaydi. Kasalmand, nimjon, hayotdan umidi so'ngan bu yigit uni hech kim sevmasligini aytib tushkunlikka tushadi. Bu holatni ko'rgan Malika unga achinib, tezroq sog'ayishini istab bemor yigitga uni sevrishini aytadi. Ko'zlaridan operatsiya bo'lgan bu yigitda hayotga bo'lgan ishonchni, umidni va eng asosiysi muhabbatni qayta tiklaydi. Malika singari qahramonlar hayotimizda ham ko'plab uchraydi. "Ayol ovozi" hikoyasidagi Malika mehribonligi, samimiyligi va insoniyligi tufayli kitobxon qalbidan chuqur joy oladi.

REFERENCES

1. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2005. -254-b.
2. Adabiyot va zamon. Maqolalar, adabiy o'ylar, suhbatlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
3. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy asar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1978.
4. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. 2-jild.– Toshkent: Fan, 1979.
5. Normatov U. Umiddaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
6. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2000.
7. N. Normatov, A.Ulug'ov.-// Biz izlayotgan hikmatlar// - O'zbekiston tarixi, adabiyoti va madaniyati// 24-dekabr, 2015-y.
8. N.Normatov. "Bisot". Qissalar, hikoyalar. T.: -"Sharq" 2012.

² N. Normatov «Bisot: qissalar va hikoyalar» T.: "Sharq", 2012. 18-b.